
HASHAR — HAMJIHATLIK, OBODLIK VA FAYZU BARAKA OMILI

“Bir bo’lsak - yagona xalqmiz, birlashsak - Vatanmiz!”

Xalqimizda dunyoning boshqa xalqlari o’rganadigan, havas qilsa arziydigan qadriyatlari, urf-odatlaridan biri — bu hashardir. Hasharda tozalik, ozodalik, ko’chalarni obod qilish, daraxtlarga ishlov berish, atrof-muhitni ozoda-sarishtaligini ta’minlash kabi ishlar bajariladi. Rishton tumanida mustaqilligimizning 33 yilligini keng nishonlash, hududlar obodligi va aholi farovonligini oshirish maqsadida “Bir bo’lsak - yagona xalqmiz, birlashsak - Vatanmiz!” shiori ostida hasharlar uyushtirilib, ko’cha va qishloqlar, ko’p qavatli uylar atrofi hamda tuman markazida obodonlashtirish va ko’kalamzorlashtirish ishlari olib borilmoqda. Tumandagi mahalla faollari hasharda ishtirok etib, hamjihatlikda ko’plab mahalla hududlarini obod qilishga kirishdilar. Nuroniylarimiz yurt tinchligi abadiy, bu kabi bunyodkorliklar bardavom bo’lishini so’rab, duoga qo’l ochishdi. Tumanimiz bo’ylab keng ko’lamli obodonlashtirish, hashar ishlari davom ettirilmoqda.

2024-08-24 13:03:35